

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Kasb ta'limi praktiumi (Duradgorlik)**

Fandan Amaliy Mashg'ulotlar va ularni bajarish uchun  
uslubiy ko'rsatmalar

5142000-Mehnat ta'limi yo'nalishi (1-bosqich talabalari  
uchun)



Namangan 2010 yil



Ushbu uslubiy ko'rsatmalar 5142000-msxiat ta'limi yo'nalishi talabalari «Kasb ta'limi praktikumi (duradgorlik)» fanidan amaliy mashg'ulotlari bo'yicha talabalarga davlat standarti asosida boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik berish bo'g'i bo'lib hisoblanadi

Tuzuvchilar:

dos. Abdullayev S.X.

o'qituvchi. Xudoyqulov SH.S,

Taqrizchilar:

dos. I.T.Uluxanov

NamDU Umumtexpika fanlari va kasb talimi kafedrasining yiqilishida ko'rib chiqilgan va maqullangan (2010 yil \_\_\_\_\_ -sonli bayonnoma).

Namangan - 2010

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga binoan, mamlakatimizda ta'lim standartlari va ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tilishi, pedagogik jarayonni tashkil etishni talab qiladi.

Ushbu amaliy mashg'ulotlarning maqsadi bo'lajak kasb-ta'limi bakalavrlarini, o'quvchilar mehnat va kasb-ta'limining duradgorlik bo'limi bo'yicha. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning samarali usullarini tashkil etish bo'yicha bilim, malaka va kunikmalar bilan qurollantirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlar duradgorlikka oid Shakllantirila-digan bilimlar, har bir amaliy mashg'ulotning maqsadi, amaliy mashg'ulotni bajarishda ishlatiladigan jihozlar, asbob va moslamalar. mashg'ulotni bajarish ketma-ketligi ko'rsatilgan yuriqlar va topshirik, har bir mashg'ulot yuzasidan talabalar bilimini tekshirish uchun nazorat savollari berilgan.

Talabalar duradgorlik ishlarini o'rganishda Yog'och materiallari turlari bilan tanishish, duradgorlik asboblari va jihoz-moslamalarini sozlashni ular bilan turli konstruksiyali detallarga duradgorlik ishlovi berishlarni, pardoqlash ishlarini amalga oshirishni va shu kabilarni bilishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarda sekin asta ijodiy fikrlash aktivlashadi. Ularda diqqat, fazoviy hayol rivojlanadi. Shaklni his kilish, chamalash, harakatlar koordinasiyasi, materiallarga qo'lda ishlov berish jarayonida turli operasiyalarni bajarishda marom, suratni his kilish va kuchni rasional ishlatish hissi takomillashadi.

Talabalar o'quvchilarga duradgorlik mashg'ulotlarida qulay ish vaziyatlarini egallay bilish, ishlov berishda detallarni to'g'ri joylashtirish

kabi bir kator ko'nikmalarni o'rganishga oid pedagogik mahoratni egallaydilar.

Kasbiy ta'lim yo'nalishi bakalavrlari esa o'quvchilarni ana shunday bilim va ko'nikmalarni o'rgatish jarayoni bilan nazariy va metodik jihatdan tayyor bo'lishlari lozim.

5142000-mehnat ta'limi yo'nalishi bakalavrlari uchun durodgorlik fanidan amaliy mashg'ulotlarvda ta'lim mazmuni

Kasb ta'limi praktikumi (duradgorlik)dan amaliy mashg'ulotlari ta'lim mazmuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligining 2002 yildagi tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturida quydagicha belgilangan

- YOg'ochga qo'lda ishlov berish. YOg'ochga qo'lda ishlov berishning roli va vazifalari. Duradgor ish o'rnini tashkil etish va o'quv ustaxonasi dastgohlari bilan tanishish.

- O'lchov-nazorat asboblari asosiy turlariga tavsif va ulardan foydalanish qoidalari.

- Yong'inga qarshi tadbirlar, ishlab chiqarish sanitariyasi va shaxsiy gigiyena qoidalari.

- Birikmasiz, to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlar tayyorlash.
- Birikmasiz, egri chizik shaklidagi buyumlar tayyorlash.
- Mix, shurup va yelim yordamida biriktirish ishlarini bajarish.
- Burchakli tirnokli uchma-uch biriktirish ishlarini bajarish.
- Burchakli yashiksimon tirnoqli biriktirish ishlarini bajarish
- YOg'ochga mexanik ishlov berish. YOg'ochga mexanik ishlov berishning roli va vazifalari.

- YOg'och xomashyolariga arralash dastgohi, randalash dastalash parmalash dastgohi va frechalash dastgohlarida ishlov bershi.

- Tokarlik dastgohlarida buyumlar tayyorlash.


- YOg'och materiallarini pardoqlash.

Xar bir mashg'ulot o'qituvchi va o'quv ustasi tomonidan tegishli instruktaaj o'tkachilgaidan so'ng talabani nazariy bilimi tekshirib ko'rilib o'qituvchi yoki o'quv ustasi nazorat ostida bajariladi.

Amaliy mashg'ulotlarni talaba tomonidai mustaqil ravishda, o'qituvchi yoki o'quv ustasi nazoratidan bajarilishiga yo'l ko'yilmasligi shart.

Mavzu: YOg'ochga kulda ishlov berish. YOg'ochga kulda ishlov berishning roli va vazifalari. Duradgor ish urnini tashkil etish va o'quv ustaxopasi dastgohlari bilan tapishish.

**Shakillantiriladigan bilimlar:** O'quv ustaxonasidagi ish joyi bilan tanishish. Duradgorlik o'quv ustaxonasidagi uskunalarni jixozlash. YOg'och qo'lda ishlov berishning axamiyati va roli. YOg'ochnash tuzilishi va turlariga karab ajratish. YOg'och materiallar va ulari ishlatish soxalari



**Ishdan maqsad:** O'quv ustaxonasidagi ish joyi va uskunalarni jihozlash. YOg'ochga qo'lda ishlov berish usullarini kullab buyumlar tayyorlash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Arra. randa, bolga, parma. egov, jilvir qog'oz, o'lchov chizg'ichi, qalam, andazalar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** YOg'ochga qo'lda ishlov berib (duradgorlik guniyasi, porsi guniya, xatkash, bolga dastasi, japs randa dastasi, kitob tokchasi va xokazo) buyumlar tayyorlash.

**Toshpiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:.**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini tuzish.

2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos Yog'och tanlash (kedr, zirk, kayin, kopa kayin, eman, shumtol, yong'oq va xokazo).

3. Tayyorlanadigan buyumni chizma bo'yicha rejalash.

4. Reja bo'yicha arralash, randalash va parmalash ishlarini bajarish.

5. Biriktiriladigan qismlarida tirok, kulok va uyalarni rejalash.

6. Girnok chiqarish va kulok ochish.

7. Biriktirish usullaridan foydalanib buyumlarni yig'ish.

8. Buyumlarni jilvirlab pardoqlash va aliflab yoki loklash ishlarini bajarish.

9. Tayyor bo'lgan buyumni o'qituvchi yoki o'quv ustasiga topshirish.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Duradgorlik guniyasi, porsi guniya, xatkash. Yog'och bolg'a, japs raida dastasi, bolg'a dastasi, kitob tokchasidai birortasini tanlab olib buyum tayyorlash.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Buyum yasash texnologiyasini tartibi va boskichlarini tushuntiring.

2. Buyumlarni rejalashda zakatovkaning qanday sirtlari barcha sifatida xizmat qilish kerakmi?

3. Rejalash asboblari foydalanib chizma bo'yicha rejalashdan tashqari boshqa ishning yana qanday unumdor yo'llari bor?

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.** YOg'ochni ishlatish sohasi, duradgorlik haqida tushunchalar olish. YOg'ochning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, maxalliy xududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan Yog'och turlarini aniqlash. YOg'ochlarning sifatini va ularning nuksonlarini aniqlash.

**Mavzu:** Yog'och materialdan tayyorlanadigan buyum detallarini xavfsizlik texnikasi qoidalariga binoan o'lchash va rejalash.

**Shakllantiriladigan bilimlar:** Duradgorlikda ishlatiladigan o'lchash asboblari haqida qisqacha ma'lumot. O'lchash va rejalash asboblari: chizg'ichlar, buklama metr, qalam, hatkash va boshqalarni ishlatish usullari. O'lchash va rejalash qurollari: millimetrlı chizg'ich, kronserkul, shtangensirkuldan foydalanish. O'quv ustaxonalarida rioya qilinadigan umumiy tartib va qoidalar. Dastakka elektr asboblari bilan ishlash qoidalari haqida. Yog'ochsozlik dastgohlarida ishlash qoidalari.

**Ishdan maqsad:** O'lchash va rejalash asboblari bilan ishlash. Yog'och materiallaridan tayyorlanadigan buyum detallarini o'lchash va rejalash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Arra, randa, duradgorlik bolg'asi, buklama metr, chizg'ich, guniya, malka, resmos (hatkash), sirkul kabi asboblar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** O'lchash va rejalash asboblarini ishga sozlash va ularni foydalanib tayyorlanadigan buyumni tejamli qilib rejalash.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini chizing.
2. Tayyorlanadigan buyumga mos zakatovka tanlab oling.
3. Zakatovkani rejalashda rejalash va o'lchov asboblarini mustahkamligini va o'lchash aniqligini tekshirib oling.
4. Tekshirib olingandan so'ng zakatovkani kam chiqimli qilib rejalash.
5. Rejalangan zakatovkani berilgan o'lchamda randalash yoki arralash ishlarini bajarish.
6. Tayyor bo'lgan buyumni qayta o'lchab tekshirib oling.

**Nazorat uchun savollar:**

1. O'lchash va rejalash asboblarini qanday turlarini bilasizq
2. Buyumni tayyorlashda qanday o'lchamlarga e'tibor berish kerakq
3. O'lchash va rejalash asboblarini ishga tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerakq

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.** O'lchash va rejalash asboblarining texnik va texnologik ma'lumotlari haqida tushuncha olish. Zamonavı o'lchash asboblarini o'rganish. Tayyorlash ko'zda tutilgan buyumlarni o'lchamlarini hisobga olgan holda mahsulotlarni tayyorlash bosqichlarining texnologik mjarayonlarini rejalashtirish bo'yicha texnologik kartalar tuzishni o'rgatish. Ustaxonalarda texnika xavfsizligi va yong'inga qarshi tuziladigan tadbirlar haqida ma'lumot olish.

### Amaliy mashg'ulot № 3

**Mavzu:** Birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlar tayyorlash.

**Shakllantiriladigan buyumlar:** birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlarni qo'l asboblari yordamida tayyorlash. Yog'och buyumlarini kesish yo'li bilan ishlov berish. Yog'ochni qo'l asboblari bilan silliqdashning texnik-texnologik ma'lumotlari. Birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlarni tayyorlashda ishlatiladigan o'lchash va rejalash asboblari ishga tayyorlash.

**Ishdan maqsad:** Birikmasiz to'g'ri burchakli buyumlarni rejalashni o'rganish va tayyorlash usuli.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Arra, randa, parma, jilvir qog'oz, egov, millimetrli chizg'ich, duradgorlik guniyasi, qalam.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** Birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi (go'sht va sabzavotlar to'g'raydigan taxtacha, buyum uchun brusok va boshqa) buyumlar tayyorlash.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini tuzish.
2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos yog'och tanlash (kedr, zirk, qayin, qora qayin, eman, shumtol, yong'oq va hokazo).
3. Tayyorlanadigan buyumni chizma bo'yicha rejalash.
4. Zakatovkani reja bo'yicha aralash.
5. Zakatovkani chiqiqlarini randalash va silliqdash usullari yordamida texnik sirtlarini hosil qilish.
6. Zakatovkani chizma bo'yicha parma yordamida teshik ochish.
7. Tayyorlangan buyumni pardoqlash.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Sabzavot to'g'raydigan taxta, eshikning ko'ziga qo'yiladigan dilalar, fanera plitalar, brusoklardan birortasini tanlab olib tayyorlang.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi qanday buyumlarni bilasizq
2. Birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlarni tayyorlashda qanday texnik texnologik qoidalarga rioya qilinadiq

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.**

Birikmasiz, to'g'ri to'rtburchakli detallarni tayyorlash usullari, buyumni tayyorlashda ishni rejalash va texnologik xaritalari haqida ma'lumot olish, qadimgi xalq amaliy xunarmandchiligida tayyorlangan birikmasiz to'g'ri to'rtburchak shaklidagi buyumlar haqida ma'lumot.

### **Amaliy mashg'ulot № 4**

**Mavzu:** Birikmasiz, egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash.

**Shakllantiriladigan bilimlar:** Birikmasiz, egri chiziq shaklidagi buyumlarni tayyorlashni texnik-texnologik ma'lumotlari. Fanera materiallaridan egri chiziq shaklidagi buyumlarni tayyorlash usullari. Fanera va yog'ichni turli xil shakldagi silliqlashda qo'l asboblariidan foydalanish. Yog'ichni qo'l asboblariidan foydalanib teshik ochish usullari.

**Ishdan maqsad:** Birikmasiz egri chiziq shaklidagi buyumlarni rejalash usullari. Birikmasiz egri chiziq shaklidagi turli xil buyumlarni tayyorlash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Millimetrli chizg'ich, qalam, lekala, sirkul va har xil naqsh andozalari, duradgorlik arrasi, lobzik arra, randa, jilvir qog'oz, egov va boshqalar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** Fanera va yog'ichni o'yish, kesish asboblari, iskanalardan foydalangan holda birikmasiz egri chiziq shaklidagi (shift uchun fanera naqsh gullar, rom uchun ustunlar, deraza va eshik arkalari va hokazo) buyumlar tayyorlash.

#### **Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xatitalarini tayyorlash.
2. Tayyorlanadigan buyumga mos yog'och va fanera materiallar tanlash.
3. Tayyorlanadigan buyumni chizma bo'yicha andazalar yordamida rejalash va o'lcham bo'yicha arralash.
4. Fanaralar yuzasini tushirilgan chizma bo'yicha lobzik arra yordamida arralash.
5. Buyumni asosiy qirralarini egovlash.
6. Buyumni yuzasini jilvirlash va pardoqlash ishlarini bajarish.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Shift uchun fanera naqsh gullar, rom uchun naqshdor ustunlar, deraza va eshik arkalaridan birortasini tanlab olib tayyorlang.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xalq xunarmandchiligida rivojlangan birikmasiz egri chiziq shaklidagi buyumlarni turlarini aytingq

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.**

Faneraning turlari va tayyorlashning texnik-texnologik ma'lumotlari. Yog'ochni turli xil shaklda silliqlashda qo'l asboblardan foydalanishning texnik-texnologik ma'lumotlari. Xalq xunarmandchiligidagi rivojlangan birikmasiz egri chiziq shaklidagi buyumlarni tayyorlash usullari.

## **Amaliy mashg'ulot № 5**

**Mavzu:** Mix, shurup va yelimlar yordamida buyumlar tayyorlash.

**Shakllantiriladigan bilimlar:** Duradgorlik buyumlari detallarini yelimlash biriktirish usullari. Duradgorlik yelimlari va ularni ishlatish. O'quvchilarga buyumni mix va shurup bilan yig'ishni va chizma bo'yicha bajarishni shakllantirish, detallarni yog'och (cho'p) mixlar bilan biriktirish usuli. Yelimlarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalari.

**Ishdan maqsad:** Duradgorlik buyumlari detallarini mix, shurup va yog'och mixlar yordamida biriktirish. Yelimlarni ishga tayyorlash va detallarni yelimlab biriktirish.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** O'lchov chizg'ichi, guniya, hatkash, qalam, sirkul, arra, parma, bolg'a, egov, randa, o'yuvchi iskana, tukmoq va boshqalar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** Mix, shurup va yelim yordamida yog'ochdan yasaladigan gul uchun taglik tokcha, rasm ramkasi, o'tirgich, bolalar kravati, qush uyasi, plakat va kartalar uchun shtativ va boshqa buyumlarni biriktirib yasash.

### **Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini tuzish.
2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos materiallar tanlash (qarag'ay, archa, tilag'och, oq qarag'ay, terak, eman, tog' teragi va faneralar).
3. Tayyorlanadigan buyumni chizma bo'yicha rejalash.
4. Tayyorlanadigan buyumni chizma bo'yicha arralash ishlarini bajarish.
5. Har bir buyumni birinchi (baza) qatlamini randalash.
6. Zagatovkani eni va qalinligi bo'yicha to'rt tomondan rejalash.
7. Reja bo'yicha bo'ylamasiga arralash.
8. Detallarda yarim o'yiqli birikma yoki quloq va uyalarni rejalash.
9. Tirnoq va uyalarni arralash va trum ochish, parmalash.
10. Biriktirish usullaridan foydalanib mix, burama mix (shurup) va yelimlar yordamida biriktirish ishlarini bajarish.
11. Buyumlarni jilvirlab pardoqlash.
12. Tayyorlangan buyumni o'qituvchi va o'quv ustasiga topshirish.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Duradgorlik yelimlari va ularni ishlatish usullarini tushuntiring.
2. Asboblarni saqlanadigan planshet, shvabra va archa uchun taglik tayyorlashning texnologik xaritalarga muvofiq to'g'ri tirnoq va gushalarning kesish texnologiyasini tushuntirish.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.**

Duradgorlikda ishlatiladigan yelimlar (Glyutin, Kazein, Fenolformaldegid va boshqalar) haqida ma'lumot. Yelimlarni fizik va kimyoviy xossalarini o'rganish. Mix, vint, burama mix (shurup) larning texnologik xususiyatlari haqida. Qadimgi xalq xunarmandchiligida ishlatiladigan biriktirish elementlari. Hozirgi zamonda yelimlarni tayyorlash texnologiyasi.


**Amaliy mashg'ulot № 6**

**Mavzu:** Burchakli, tirnoqli uchma-uch biriktirish ishlarini bajarish.

**Shakllantiriladigan bilimlar:**

Bog'lash usullari

- A) Dastabid bog'lash,
- B) Ochiq bir tirnoqli,
- V) Yopiq bir tirnoqli,
- G) Ochiq turumli,
- D) Iliq turumli,
- E) Yassi turumli,
- J) Quymali,
- Z) Porsi dastabel birikmalari bilan tanishish.



2-rasm. Burchakli, tirnoqli uchma-uch biriktirish usullari.

Turum va quloqning texnik chizmasi bilan tanishish. O'yish, turm va quloqni yelim bilan bir-biriga jipslashtirish usuli.

**Ishdan maqsad:** Burchakli tirnoqli uchma-uch biriktirish usullari:

- Dastabid bog'lash.
- Ochiq bir tirnoqli.
- Yopiq bir tirnoqli.
- Ochiq turumli.
- Iliq tirumli.
- Yassi turumli.
- Quymali.
- Porsi dastabel birikmalari yordamida buyumlar tayyorlash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Tirnoq va uyalarning andozalari, chizg'ich, qalam, xatkash, arralash va randalash stanogi, parmalash va o'yish stanogi, yog'och to'qmoq, arra, randa va boshqalar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:**

Burchakli tirnoqli uchma-uch biriktirib (ramka, duradgorlik guniyasi, eshik, deraza va boshqa) buyumlardan tayyorlash. Reja asosida tirnoq chiqarish va quloq ochish ishlarini bajarish.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini tuzish.
2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos yog'och tanlash (qarag'ay, eman, tog' teragi, archa, sada, chinor).
3. Zagatovkani rejalab olish.
4. Randalash uchun quyum qoldirib undan materiall arralab olish
5. Brusoklarni uchida ma'lum o'lchamda tirnoq, quloq va kertmaklarini rejalash.
6. Tirnoq chiqarish, quloq ochish va kertmalarni hosil qilish.
7. Tirnoq va quloqlarni o'zaro bir-biriga kiritish va birikma xosil qilish.
8. Birikmani jipsligini ta'minlash.
9. Birikmalarni mix chup va yelimlar yordamida maxkamlash.
10. Biriktirilgan buyumni sifatini yaxshilash.
11. Tayyorlangan buyumni o'qituvchi yoki o'quv ustasiga topshirish.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Rasm uchun ramka, duradgorlik guniyasi, eshik, deraza va h.k.

### Nazorat uchun savollar:

1. Porsi tirnoqli birikmalarni turlarini aytingq
2. u yoki bu pors tirnoqli birikmalardan foydalaniladigan mehnat obyektlaridan misollar keltiringq
3. To`g`ri tirnoqli va qiyg`och tirnoqli birikmalarning bir-biridan farqi nimadaq
4. Uchma-uch tirnoqli birikmalarga va tayyorlangan buyumga qanday talablar qo`yiladiq


### Mustaqil ta`lim uchun topshiriqlar.


Duradgorlik birikmalari to`g`risida texnik ma`lumotlar. Tirnoqli uchma-uch biriktirish xaqida texnik ma`lumot olish. Porsi usulida bog`lashning asosiy turlari xaqida. Porsi tirnoq birikmali buyumlar yasash texnologiyasini o`rganish. Xalq xunarmandchiligida ishlatiladigan burchakli, tirnoqli uchma-uch biriktirish usullari.

### **Amaliy mashg`ulot № 7**

**Mavzu:** Burchakli yashixsimon tirnoqli biriktirish ishlarini bajarish.

**Shakllantiriladigan bilimlar:** Yashixsimon ko`p tirnoqli maxfiy va yarim maxfiy birikmalar. Tirnoq andazalari va ko`p chiziqli xatkashdan foydalanish usullari. Ko`p tirnoqli o`zgaruvchan andazalardan foydalanish usuli. Birikmaga mos yog`och tanlashni o`rganish.





**Ishdan maqsad:** Ko`p tirnoqli birikmalar, sandiq bog`lash, yashik simon ko`p tirnoqli maxfiy va yarim maxfiy birikmalar yordamida buyum tayyorlash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Millimetrli o`lchov chiziqli, qalam, porsiy guniya, duradgorlik guniyasi, xatkash, xar xil tirnoq andozalari. Arralash, randalash, parmalash va o`yish dastgoxlari, yog`och bolg`a, arra, randa va h.k.

**Mashg`ulot yuzasidan topshiriq:**  
Ko`p tirnoqli birikmalarni rejalash.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko`rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumni texnologik xaritasini tuzish.
2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos materiallar tanlab olish (archa, qarag`ay, eman, tog` teragi, sada, chinor va boshqalar).
3. Randalash uchun quyum qoldirib undan materiall arralab olish
4. Texnologik karta asosida 1 uzunlikdagi, eni  $a$ , qalinligi  $h$  bo`lgan brusoklar tayyorlanadi.
5. Brusoklarni uchida ma`lum o`lchamda tirnoq, quloq va uzunligini rejalash.
6. Tirnoq chiqarish uchun kertish va quloq ochish uchun o`yish ishlarini bajarish.
7. Tirnoq va quloqlarni o`zaro bir-biriga kiritish va birikma hosil qilish.
8. Birikmani jipsligini ta`minlash.
9. Birikmalarni mix, shurup va yelimlar yordamida biriktirish.
10. Birikmalarni pardoqlab sifatini yaxshilash.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Mix yashig'i, g'aladon, sandiq, planshet, meva yashig'i va boshqa buyumlar.




**Nazorat uchun savollar:**


1. Yashiqsimon ko'p tirnoqli maxfiy va yarim maxfiy birikmalarni bir-biridan farqi nimadaq
2. Burchakli yashiqsimon tirnoqli biriktirish usullarini aytingq
3. Tayyorlangan buyumlarga qo'yiladigan talablarq

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:** Duradgorlik birikmalari to'g'risida texnik ma'lumotlar. Turumli birikma haqida texnik ma'lumot olish. Porsi tirnoq birikmali buyumlar yasash texnologiyasini o'rganish. Xalq xunarmandchiligida ishlatiladigan burchakli yashiqsimon tirnoqli biriktirish usullari haqida.

**Amaliy mashg'ulot № 8**

**Mavzu:** Yog'ochga mehanik ishlov berishda ishlatiladigan dastgohlar va asbob-uskunalar yordamida buyumlar tayyorlash.





**Shakllantiriladigan bilimlar:**

Yog'ochga mexanik ishlov berishda texnika xavfsizligi qoidalari. Yog'ochga mexanik ishlov berish texnologiyasi. Mexanik ishlov berishda ishlatiladigan yog'ochlarni turlari.

**Ishdan maqsad:** Yog'ochga mexanik ishlov berish usuli yordamida buyumlar tayyorlash.

**Jihozlar, asbob va moslamalar:** Millimetrli chizgichi, qalam, sirkul, duradgorlik guniyasi, arralash, parmalash, randalash, o'yuvchi, sirkul arra, elektr charx dastgohlari, bolg'a, kul randa, duradgorlik arrasi.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** Yog'ochga mexanik ishlov berishda ishlatiladigan o'lchov va nazorat asboblari yordamida buyumni rejalash va texnologik xaritalarini o'rganish. Yog'ochga mexanik ishlov berishda ishlatiladigan dastgohlar va asbob uskunalar yordamida buyumlarni tayyorlash.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Yasaladigan buyumlarni texnologik xaritasini tuzish.
2. Tayyorlanadigan buyumlarga mos yog'och tanlash (dub, eman, qarag'ay, archa, yong'oq va hokazo).
3. Zagatovkani chizma (andaza) bo'yicha rejalash.
4. Zagatovkani l\*h\*a o'lchamlariga kelguncha arralash, randalash ishlarini bajarish.
5. Biriktiriladigan qismlarini tirnoq va quloqlarini rejalash.
6. Tirnoq, quloq va uyalarni arralash va parmalab teshik ochish.

7. Tirnoq, quloq va uyalarni moslashtirish.
8. Yasaladigan buyumni detallaridagi nishablik va farqlarni ochish va randalash ishlarini bajarish.
9. Tayyorlanadigan buyumni butun konturini egovlash va jilvirlash.
10. Buyumni yelimlar, mixlar, shuruplar yordamida yig'ish va tozalash.
11. Buyumni pardozlash.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Buklama, stul, skameyka, bolalar karavoti va hokazo.

**Nazorat uchun savollar:**






1. Yog'ochlarni o'yishda qaysi dastgohlar qo'llaniladi va ularni tuzilishi qandayq
2. Dastgohlarda va mexanizmlarda amalga oshiriladigan ish usullari duradgorlik qo'l asboblariida bajariladigan ish usullaridan qanchalik farqliroq ekanini aniqlang.

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:** Mehanik ishlov berishda ishlatiladigan nazorat o'lchov asboblariini texnik ma'lumotlari haqida. Hozirgi zamonda yog'ochga mehanik ishlov berish usullari. Yog'ochga mehanik ishlov beruvchi dastgohlarni ish usullari va buyum tayyorlash texnologiyasi. Qishloq xo'jaligida yog'ochga mehanik ishlov berish ahamiyati. Yog'ochga mehanik ishlov berish sohasidagi xalq xunarmandchiligi kasblari haqida referat tayyorlash.

### **Amaliy mashg'ulot №9**

Mavzu: Tokarlik dastgohlari (STD – 120) da buyum tayyorlash.

**Shakllantiriladigan bilimlar:** Yog'och ishlash tokarlik dastgohini tuzilish, ishlash usullari va xavfsizlik qoidalari. Detallar sirtini shakldor qilib ishlash usullari. Yog'ochga ishlov beradigan tokarlik dastgohini murakkab sirtlarni ishlashga sozlashni o'rganish. Tokarlik dastgohida konussimon va murakkab sirtli buyumlarni tayyorlash. Tokarlik dastgohida oddiy silindrik sirtli buyumlar tayyorlash. Tokarlik iskanalari bilan tanishish.



8)

**Ishdan maqsad:** Tokarlik dastgohi STD – 120 da buyum tayyorlash usullarini o'rganish. Tokarlik dastgohi STD – 120 da oddiy silindrik, konus va murakkab sirtli buyumlarni tayyorlash.

**Jihozlar, asboblari va moslamalar:** O'lchov chizg'ichi, qalam, andozalar, shtangensirkul, STD – 120 dastgohi, duradgorlik keskichlari, egov, jilvir qog'oz, arra va boshqalar.

**Mashg'ulot yuzasidan topshiriq:** Tokarlik dastgohida konussimon va murakkab sirtli juva, chekich, bolg'a dastasi, egov dastasi, ilgak qozig'i, stol oyoqlari va boshqa buyumlarni tayyorlash.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1. Tayyorlanadigan buyumlarni texnologik xaritalarini chizish.
2. Yasaladigan buyumlarga mos materiallar tanlash: qayin, zarang, arguvon, oq qayin, qora qayin va tol kabi, yog'ochlar tokarlik dastgohida yaxshi ishlanadigan materiallar hisoblanadi.
3. O'lchamlarga keltirib randalash va qirqish.
4. Zagatovkani ko'ndalang sirtlarini rejalash va markazlarga kernerlash.
5. Zagatovkani dastgohga o'rnatish.
6. Yog'och diametrini d ga keltirib yo'nish.
7. Zagatovkani dastgohning o'zida chizma bo'yicha umumiy rejalash.
8. I uzunlikdagi tirnoqlar hosil qilish.
9. Ariqchalar, konus sirt va murakkab sirtlar hosil qilish.
10. Tayyor buyumni hoshiyalash.
11. Buyumni pardozlash va qirqib tushirish.

**Tayyorlanadigan buyumlar:** Juva, chekchi, bolg'a dastasi, egov dastasi, ilgak qozig'i, stol-stul oyoqlari va hokazo.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Murakkab sirtlarga ega bo'lgan buyumlarni yasashda va ularga qo'yiladigan talablarni bajarishda qanday yog'ochlardan foydalaniladi?
2. Murakkab sirtlarni ishlashda foydalaniladigan keskichlarni turlarini sanang.
3. Nam va quruq yog'ochni qaysi biridan yasalgan buyumning sifati yaxshiroq bo'ladi?
4. Yog'och zagatovka tokarlik STD – 120 dastgohida qanday qilib o'rnatiladi?
5. Nazorat-o'lchov asboblari bilan silindrsimon sirtlarni o'lchashning usullarini tushyntiring.
6. Mustaqil ta'lim uchun topshiriq: Detallar sirtini Shakillar qilib ishlashda tokarlik dastgohini ahamiyati, Tokarlik dastgohida ishlatiladigan keskich (iskana)lar hakida, YOG'och ishlash tokarlik dastgohida tayyorlanadigan

buyumlar va ularning tavsifi. YOg'ochlarning kattikliini aniklash va Yog'och yonish tokarlik dastgoxida kompleks ish bajarish.

### **Amaliy mashg'ulot № 10**

**Mavzu:** YOg'och materiallarini pardoqlash.

**Shakillantiradigan bilimlar:** O'quvchilarga Yog'och materiallarni dastlabki pardoqlash usullarini o'rgatish. Duradgorchilik buyumlarini lok va bo'yoklar yordamida pardoqlash texnikasi. Pardoqlashdagi xavfsizlik texnikasi qoidalari Yog'ochdan tayyorlangan buyumlarga bezak berish usullarini xamda Yog'och buyumlarinig sifatini aniqlash usullarini bilish va bajarish. O'quvchilarda suvli, moyli buyoqlar hamda lok bilan ishlash malakalarini xosil qilish. Buyumlarni kuydirish va turli gullar uyish usullari bilan pardoqlash.

**Ishdan maksad:** Buyumlarni kuydirib gul solish va turli gullar uyish usullari bilai pardoqlash. Buyumlarni lok va moyli buyoklar yordamada pardoqlash.

**Jixozlar, asbob va moslamalar:** Millimetrli ulchov chizgichi, qalam, sitrkul,va andozalar, Yog'och o'ymakorlik iskaialari, egov, jivir qogoz, buyok chutkalari.

**Mashq'ulot yuzasidan topshiriq.** YOg'ochdan tayyorlangan (sandi, javon, eshik, beshik va boshka ) buyumlarga bezak berish usullarini, hamda Yog'och materiallari buyumlarining sifatini aniqlash usullarini o'rganish va bajarish.

**Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma:**

1.Pardoqlash uchun tayyorlagan buyumlarga mos bezak usullarini tanlash (kuydirish, o'yish, rang berib gul solish va x.k.).

2.Pardoqlash uchun ishplatiladigan bezakniig eskizini yani texnologik xaritasini tuzish.

3.Buyumni yuzasini chizma bo'yicha rejalash.

4.Buyumni yuzasiga chizmadagi gulni ya'ni andozani suvratini ko'chirish usulida yuzasiga tushirish.

5.Buyum yuzasiga tushirilgan chizmaning yullari bo'yicha kuydirish, o'yish, ranglar yordamida chizish ishlarini bajarish.

6.Buyum yuzasiga tushirilgan bezaklarni sifatini yaxshilash uchun buyum yuzasiga lok surtish yoki apparat yordamida seplash.

7.Tayyor bo'lgan buyumni o'qituvchi yoki o'quv ustasiga topshirish.

**Nazorat uchun savollar;**


1.Siz mavjud amaliy tajribangizga asoslanib tayyor buyumlarni sirtlarini pardoqlashning qaysi usullaridan foydalanasizq

2.Pardoqlash usullarini sanab beringq



Mustaqil ish uchun topshiriklar:

3.YOg'och materiallarini xavfsizligini ta'minlash uchun ishlatiladigan pardozlash usullari. Pardozlash ishlarida ishlatiladigan asboblari hakida ma'lumot. Ishlab chiqarish sharoitidagi pardozlash ishlari bilan tanishish. 4.Badiiy bezak ishlarining turlari, materiallari va texnologiyasiga doir umumiy ma'lumotlar olish, mutaql amaliy bezak ishlarini bajarish va referat tayorlash.


### Tayyorlanadigan buyumlarnn texnologik xaritalardan na'munalar



| КИТӘБ ТОҚЧАСИ |            |                   | қузлмә |
|---------------|------------|-------------------|--------|
| №             | Номи       | Материали         | Сони   |
| 1             | Осма       | ОТЗНЛОКИДИ ПОЛДНН | 2      |
| 2             | Орқа добор | БЭРЧ              | 1      |
| 3             | Ен добор   | БЭРЧ              | 2      |
| 4             | Дурама мик |                   | 14     |
| 5             | Тоқча      | БЭРЧ              | 2      |
| 6             | Рейка      | БЭРЧ              | 4      |



| ЖАПСРАНДА ДАСТАСИ |       |             | Ч/ЗМД |
|-------------------|-------|-------------|-------|
| Т.Н°              | Номи  | Материали   | Сони  |
| 1                 | Даста | Каттақ ёгон | 1     |



| ТН | Боланинг<br>оғирлиги | n  | m  | A  | B  | C   |
|----|----------------------|----|----|----|----|-----|
| 1  | 200г                 | 4  | 20 | 24 | 20 | 280 |
| 2  | 300г                 | 11 | 20 | 24 | 20 | 310 |
| 3  | 400г                 | 13 | 24 | 30 | 22 | 330 |
| 4  | 500г                 | 15 | 24 | 30 | 22 | 350 |



| БОЛГА ДАСТАСИ |       |           | -чиЗМА |
|---------------|-------|-----------|--------|
| ТН            | Номи  | Материали | Сони   |
| 1             | даста | эгоч      | 1      |

### **FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR.**

I.A.KARIMYUV «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» Birinchi chakirik O'zbekiston Respublikasp Oliy Majlisining XIV — sessiyasidagi ma'ruzasi. Toshkent 1999 yil.

2."Umum o'rta ta'limning davlat ta'limi standarti va o'quv dasturi".4-maxsus son "Shark" nashriyoti. T. 1999

3.A.I.VOROBYEV, S.A.LIMANSKIY, I.G.KARIMOV «Mehnat ta'limi». 7-6-sinflar uchun. T. 1989.

4.S.MAXKAMOV «O'quv ustaxonalirda utkaziladigai amaliy mashg'ulotlar». T. O'qituvchi. 1991.

5.J.RAMIZOV, I.KARIMOV. «5-7-sniflarda texnik mehnat ta'limi». O'qituvchi. 1986.

6.M.A.GRIGORYEV "Duradgorlar uchun materiallshunoslik". O'qituvchi. T. 1979.



